



UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE

**“UZLUKSIZ TA’LIMDA INNOVATION PEDAGOGIKA:
RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA
KREATIV O’QITISH YONDASHUVLARI”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA**

1

2026-yil 24 – 25-aprel



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLİY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE

**“UZLUKSIZ TA’LIMDA INNOVATION PEDAGOGIKA:
RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA
KREATIV O‘QITISH YONDASHUVLARI”**

*mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
2026-yil 24 – 25-aprel*

*Материалы международной научно-практической конференции
«ИННОВАЦИОННАЯ ПЕДАГОГИКА В НЕПРЕРЫВНОМ
ОБРАЗОВАНИИ: ЦИФРОВЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ
И КРЕАТИВНЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ»
24 – 25 апреля 2026 г.*

**INNOVATIVE PEDAGOGY IN CONTINUOUS EDUCATION:
DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND CREATIVE
TEACHING APPROACHES**

*International scientific and practical conference
April 24 – 25, 2026*

NAMANGAN – 2026

Uzluksiz ta'limda innovatsion pedagogika: raqamli ta'lim texnologiyalari va kreativ o'qitish yondashuvlari // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Namangan. 2026-yil, 24 – 25-aprel. – 640 b.

Ushbu konferensiya to'plamida maktabgacha ta'limda raqamli pedagogika, innovatsion texnologiyalar va kreativ rivojlantiruvchi yondashuvlar, boshlang'ich ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy o'qitish strategiyalari, sport ta'limida innovatsion yondashuvlarga doir ilmiy asoslangan tadqiqotlar muhokamasi o'rin olgan.

Uzluksiz ta'limning barcha bo'g'ini uchun malakali kadrlar tayyorlash borasida olib borilayotgan tizimli islohotlar yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko'nikmaga ega, tarbiya, o'qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy kadrlarni shakllantirish jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur ilmiy-amaliy konferensiyaning o'tkazilayotganligi ham bugungi kunda ilm-fan sohasidagi yangiliklarni o'rganish, amaliyotga tadbiq etish hamda yosh tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan e'tiborning namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuni.
2. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi asoslari.
3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularni qo'llash metodikasi.
4. UNESCO. Early Childhood Care and Education Reports.
5. Digital Pedagogy in Early Childhood Education, International Journal of Education Studies.

© Xujamberdiyeva Shaxnoza Kupaysinovna, 2026

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA
GERONTOPEdagogik METODLAR ORQALI PROFESSOR-
O'QITUVCHILARNING SHAXSIY SALOHIYATINI MUSTAHKAMLASH**

*Asranbayeva Munojatxon Xalimjanovna,
Namangan davlat pedagogika instituti professori, PhD*

Anotatsiya. Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning shaxsiy salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash masalalari gerontopedagogik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamli muhitda pedagoglarning kasbiy faoliyati, ayniqsa, yoshi katta mutaxassislarining moslashuvchanligi, bilim va ko'nikmalarini yangilab borish zarurati ortib bormoqda.

Tadqiqotda gerontopedagogik metodlarning mazmuni, ularning raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasi hamda professor-o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishidagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, maqolada raqamli transformatsiya jarayonida pedagoglarning kognitiv, kommunikativ va innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar asoslab beriladi.

Natijada, gerontopedagogik metodlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni professor-o'qituvchilarning shaxsiy salohiyatini mustahkamlash, ularning raqamli kompetentligini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashda muhim omil ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: gerontopedagogika, transformatsiya, oliy ta'lim, shaxsiy salohiyat, professor-o'qituvchi, pedagogik metodlar, professional rivojlanish, ilmiy-pedagogik faoliyat.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы развития и укрепления личностного потенциала профессорско-преподавательского состава высших учебных заведений в условиях цифровой трансформации на основе геронтопедагогического подхода. В современной цифровой среде возрастает необходимость адаптации педагогов, особенно специалистов старшего возраста, а также постоянного обновления их знаний и навыков.

В исследовании раскрывается содержание геронтопедагогических методов, их интеграция с цифровыми технологиями, а также их роль в непрерывном профессиональном развитии профессорско-преподавательского состава. Кроме того, обосновываются методические подходы, направленные на развитие когнитивных, коммуникативных и инновационных компетенций педагогов в условиях цифровой трансформации.

В результате доказано, что образовательный процесс, организованный на основе геронтопедагогических методов, является важным фактором укрепления личностного потенциала преподавателей, повышения их цифровой компетентности и улучшения качества образования.

Ключевые слова: геронтопедагогика, трансформация, высшее образование, личный потенциал, профессор-преподаватель, педагогические методы, профессиональное развитие, научно-педагогическая деятельность.

Abstract. *This article analyzes the issues of developing and strengthening the personal potential of higher education teaching staff in the context of digital transformation based on a gerontopedagogical approach. In the modern digital environment, there is an increasing need for teachers, especially older specialists, to adapt and continuously update their knowledge and skills.*

The study reveals the essence of gerontopedagogical methods, their integration with digital technologies, and their role in the continuous professional development of academic staff. It also substantiates methodological approaches aimed at developing cognitive, communicative, and innovative competencies of teachers in the process of digital transformation.

As a result, it is proven that the educational process organized on the basis of gerontopedagogical methods is an important factor in strengthening the personal potential of teachers, enhancing their digital competence, and improving the quality of education.

Keywords: *gerontopedagogy, higher education, personal potential, university professor, pedagogical methods, professional development, scientific-pedagogical activity.*

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida professor-o'qituvchilarning shaxsiy salohiyatini rivojlantirish masalasi nafaqat pedagogik jarayonlarning samaradorligini oshirish, balki ilmiy va ijtimoiy salohiyatni kengaytirish nuqtai nazaridan ham dolzarb hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish, ilmiy-pedagogik kadrlarning kreativ va innovatsion salohiyatini mustahkamlash, ularning motivatsion va emotsional barqarorligini ta'minlash oliy ta'lim muassasalarining strategik maqsadlaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan gerontopedagogika, ya'ni kattalar va keksa yoshdagi pedagoglar faoliyatini nazariy va amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimi, professor-o'qituvchilarning shaxsiy va professional salohiyatini mustahkamlash vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Gerontopedagogika ilmiy-nazariy manbalarda bir necha yondashuvlar asosida tavsiflanadi: birinchidan, u shaxsning umr davomida rivojlanish jarayonlarini hisobga olgan holda pedagogik strategiyalarni ishlab chiqadi; ikkinchidan, bu yondashuv o'qituvchining motivatsion, kognitiv va emotsional komponentlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan. Kattalar pedagogikasi, xususan gerontopedagogika, oliy ta'lim kontekstida professor-o'qituvchilarning tajribasi, kasbiy malakasi va shaxsiy resurslarini tizimli rivojlantirishga imkon yaratadi [1]. Shu jihatdan, u zamonaviy ta'lim jarayonida nafaqat o'quv jarayonini, balki ilmiy-pedagogik faoliyatning sifatini ham oshiruvchi muhim vosita sifatida qabul qilinadi. Shaxsiy salohiyat tushunchasi pedagogik psixologiya va gerontopedagogikada keng tahlil qilinadi. Salohiyat – bu shaxsning o'z resurslarini anglash, maqsadlarni belgilash va ularni amalga oshirish qobiliyatidir. Professor-o'qituvchilar uchun shaxsiy salohiyatning rivojlanishi nafaqat ilmiy faoliyatning sifatini oshiradi, balki ularning pedagogik innovatsiyalarga moslashuvi, o'quvchilar bilan samarali muloqot, motivatsiyani shakllantirish va ijodiy yondashuvlarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Gerontopedagogik metodlar ushbu jarayonda quyidagi asosiy yo'nalishlarda qo'llaniladi: psixologik barqarorlikni oshirish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish va shaxsiy resurslarni optimallashtirish [2]. Oliy ta'limda professor-o'qituvchilarning shaxsiy salohiyatini shakllantirishda gerontopedagogik metodlarning samaradorligi bir qancha xalqaro tadqiqotlarda o'rganilgan. Masalan, Schmidt va kollegalari gerontopedagogik yondashuvlar orqali akademiklar orasida stressni boshqarish, motivatsiyani oshirish va kognitiv jarayonlarni yaxshi-

lash bo'yicha sezilarli ijobiy natijalarni qayd etganlar [3]. Shuningdek, Taylor va boshqalar professor-o'qituvchilarni doimiy professional rivojlanish dasturlari orqali shaxsiy va professional salohiyatini mustahkamlash mumkinligini ta'kidlaydilar. Ushbu tadqiqotlar gerontopedagogik metodlarning nafaqat kattalar pedagogikasi, balki oliy ta'lim tizimida samarali vosita sifatida ishlatilishini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Bundan tashqari, zamonaviy oliy ta'lim sharoitida professor-o'qituvchilarning shaxsiy salohiyatini rivojlantirishga talablar ortib bormoqda. Ta'lim jarayonining globalizatsiyasi, raqamli transformatsiya, innovatsion pedagogik texnologiyalarning keng qo'llanilishi shaxsiy resurslar va professional kompetensiyalarni doimiy yangilashni talab qiladi [4]. Gerontopedagogik metodlar esa ushbu o'zgarishlarga moslashish, stressni kamaytirish, shaxsiy va professional maqsadlarni aniqlash va ularni amalga oshirish imkoniyatlarini beradi. Shu nuqtai nazardan, gerontopedagogik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish nafaqat professor-o'qituvchilarning shaxsiy salohiyatini oshiradi, balki oliy ta'lim sifatini yaxshilash, o'quv jarayonida kreativ va innovatsion yondashuvlarni joriy etish uchun muhim omil hisoblanadi. Professor-o'qituvchilarning shaxsiy salohiyatini rivojlantirishni ta'minlaydigan asosiy pedagogik strategiyalar ko'rib chiqiladi [5]. Bu strategiyalar orasida mentorlik, reflektiv amaliyot, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, kasbiy o'sish va doimiy bilim olish tizimlari mavjud. Gerontopedagogik yondashuvlar bu strategiyalarni tizimli ravishda amalga oshirishga imkon beradi, chunki ular shaxsning tajribasi, psixologik holati va professional maqsadlarini birlashtiradi. Shu bilan birga, gerontopedagogik metodlar professor-o'qituvchilarni o'z-o'zini rivojlantirishga, ijodiy va akademik potensialini oshirishga rag'batlantiradi.

Ushbu tezisda oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning shaxsiy salohiyatini rivojlantirish jarayonida gerontopedagogik metodlarning samaradorligini aniqlash maqsadida integrativ metodologik yondashuv tatbiq etildi. Tadqiqotning nazariy asosini gerontopedagogika va adult education sohasidagi ilmiy ishlanmalar tashkil qilgan bo'lib, ular professor-o'qituvchilarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy komponentlarini uzviy birlashtirish imkonini berdi. Tadqiqotda birinchi navbatda nazariy tahlil va tizimli tadqiqot metodlari qo'llanilib, gerontopedagogik yondashuvlar va shaxsiy salohiyatni rivojlantirish bo'yicha xalqaro va mahalliy adabiyotlar, tadqiqotlar hamda empirik natijalar o'rganildi. Shu orqali oliy ta'limdagi professor-o'qituvchilarning shaxsiy va professional salohiyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi nazariy va konseptual asoslar aniqlangan. Tadqiqotda shuningdek empirik metodlar so'rovnomalar, intervyular va kuzatuvlar orqali professor-o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyalari, motivatsiyasi, emotsional barqarorligi va innovatsion yondashuvlarni qo'llash darajasi o'rganildi, bu esa gerontopedagogik metodlarning amaliy samaradorligini baholashga imkon yaratdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, gerontopedagogik yondashuvlar professor-o'qituvchilarning motivatsiyasini, emotsional barqarorligini, kognitiv va professional kompetensiyalarini sezilarli darajada oshiradi, shuningdek, ularni o'z-o'zini anglash va shaxsiy resurslarini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga rag'batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bong M., Scofield N. (2003). Learning styles and motivation in higher education. Journal of Educational Psychology.
2. Desi E., Rayan, P.M. (2000). The «what» and «why» of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. Psychological Inquiry.
3. Розенберг, М., Мартин, Л. (2017). *Career motivation and learning in young adults*. Journal of Career Development.
4. Khalimjanovna, A.M. (2022). Problems of moral education in non-habel families. *NeuroQuantology*, 20(21), 489.
5. Асранбоева, М.Х. (2016). Формирование стрессоустойчивости у учащейся молодежи вузов. *NovaInfo. Ru*, 2(42), 257-260.
6. Asranbayeva, M. (2024). Kasbiy refleksiya o'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning muhim omili sifatida. *Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali*.

© Asranbayeva Munajatxon Xalimjanovna, 2026

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПЕДАГОГА ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Урусова Асият Муссаевна,

*Карачаево-Черкесский государственный университет имени У.Д.Алиева,
доцент кафедры общей и педагогической психологии, канд. психол. наук,
e-mail: abotasheva@bk.ru*

Anotatsiya. Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganadi, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning ijodiy salohiyatini ochishga intilayotgan o'qituvchilarning ijtimoiy va ijodiy munosabatlariga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: ijodiy amaliyotlar, maktabgacha yoshdagi bolalar, innovatsiya, hissiy intellekt, ijodkorlik, tasavvur, hissiy va psixologik qo'llab-quvvatlash.

Аннотация. В статье исследуются социально-психологические аспекты развития креативных способностей дошкольников с ориентацией на социальные и творческие установки педагогов, стремящихся к раскрытию творческого потенциала ребенка в условиях дошкольного образования.

Ключевые слова: креативные практики, дошкольник, инновации, эмоциональный интеллект, творчество, воображение, эмоционально-психологическая поддержка.

Abstract. This article examines the socio-psychological aspects of developing preschool children's creative abilities, focusing on the social and creative attitudes of educators seeking to unlock children's creative potential in preschool settings.

Keywords: creative practices, preschool children, innovation, emotional intelligence, creativity, imagination, emotional and psychological support.

В современной психолого-педагогической науке проблемы воспитания и развития детей дошкольного возраста экстраполируются на креативные способности и профессионально-важные качества педагогов, развитие их педагогического потенциала и творческих ресурсов. В научных исследованиях творческого потенциала и культурного кода личности (Е.П.Ильин, В.Н.Дру-

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ

KIRISH SO‘ZI	3
--------------------	---

I SHU’BA. / СЕКЦИЯ 1.

MAKTABGACHA TA’LIMDA RAQAMLI PEDAGOGIKA, INNO- VATION TEXNOLOGIYALAR VA KREATIV RIVOJLANTIRUV- CHI YONDASHUVLAR / ЦИФРОВАЯ ПЕДАГОГИКА, ИННО- ЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И КРЕАТИВНО-РАЗВИВАЮЩИЕ ПОДХОДЫ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ	5
--	---

1. <i>Nazirova G.M.</i> Zamonaviy maktabgacha ta’limda raqamli pedagogika va innovatsion yondashuvlar	5
--	---

2. <i>Xujamberdiyeva Sh.K.</i> Raqamli interaktiv o‘yinlar – maktabgacha ta’limni transformatsiya qiluvchi kuch	8
--	---

3. <i>Десяткова И.С., Царегородцева Е.А.</i> Развитие цифровой компетент- ности педагогов детства с использованием цифровых образовательных ресурсов	12
--	----

4. <i>Xujamberdiyeva Sh.K.</i> Maktabgacha ta’lim tizimida raqamli pedagogika va innovatsion texnologiyalar asosida bolalarning kreativ rivojlanishini ta’minlash	17
---	----

5. <i>Asranbayeva M.X.</i> Raqamli transformatsiya sharoitida gerontopedagogik metodlar orqali professor-o‘qituvchilarning shaxsiy salohiyatini mustahkam- lash	20
---	----

6. <i>Урусова А.М.</i> Социально-психологические аспекты развития творчес- кого потенциала педагога дошкольного образования	23
--	----

7. <i>Романова М.А., Муродходжаева Н.С.</i> Майевтическая ИИ-персона как инструмент развития профессионального мышления будущих педа- гогов дошкольного образования	27
---	----

8. <i>Sultonova N.A.</i> Raqamli va innovatsion yondashuvlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ongni rivojlantirish	32
---	----

9. <i>Abdusamatova N.J.</i> Katta va tayyorlov guruh bolalarini maktab ta’limiga tayyorlashda “ISTEN” texnologiyasining afzalliklari	36
---	----

10. <i>Fayzullayeva X.X.</i> Ilg‘or xorijiy yondashuvlar bilan maktabgacha yosh- dagi bolalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish	40
---	----